



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2025**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

Абдуллоев А.Ж. Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва унинг рақобатбардошлигини йўналишлари.....	171
Ikramova K.Sh. Cultural policy and its impact on the management of cultural institutions: The impact of state and regional cultural policy on the development of cultural projects.....	176
Baxshilloev J.Sh. Turizmда sponsorlik marketingi: Yangi biznes imkoniyatlari va brendni tanitish.....	181
Turdiyeva M.U. To'qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirish xususiyatlari.....	184
Odinayeva N.F. Oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini xalqaro standartlarga integratsiyalash imkoniyatlari tahlili.....	188
Эргашов Ё.С., Файзиева Ш.Р. Ўзбекистонда туризмнинг рақамли трансформацияси...	194
Rejapov X.X., Muxibillayev M.A. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy strategiyasi va uni ishlab chiqishning iqtisodiyotdagi ahamiyati.....	197
Тўлаков У.Т. Кўчмас мулкни солиққа тортиш модели.....	204

UDK:

TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ РЕАЛИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

FEATURES OF IMPLEMENTATION OF INNOVATIVE ACTIVITIES IN TEXTILE ENTERPRISES

Turdiyeva Muqaddas Umarovna Buxoro davlat universiteti
Iqtisodiyot kafedrası o‘qituvchisi i.f.f.d. (PhD) dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqola bugungi kunda sanoat korxonalarida, innovatsiyalarni “yangi ijtimoiy ehtiyojlar, ularni to‘laroq qondirish uchun yangi amaliy vositalarni (yangiliklarni) yaratish, ularni keng tarqatish va ulardan foydalanishning kompleks jarayonidir, shu bilan birga bu mazkur yangilik bilan bog‘liq holda ijtimoiy va moddiy sohalarida yuzaga keladigan o‘zgarishlar jarayonidir munosabatlarda tutgan o‘rni haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya raqobatbardosh, samaradorlik, korxona, xodimlar, milliy iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar.

В данной статье дается подробная информация о роли инноваций на современных промышленных предприятиях, «новых социальных потребностях, сложном процессе создания новых практических инструментов (инноваций) для их полного удовлетворения, их широком распространении и использовании, и в то же время, это процесс изменений, происходящих в социальной и материальной сферах в связи с этой инновацией.

Ключевые слова: инновации, конкурентоспособность, эффективность, предприятие, работники, национальная экономика, международные отношения.

This article provides detailed information on the role of innovation in today's industrial enterprises, "new social needs, the complex process of creating new practical tools (innovations) to fully satisfy them, their wide distribution and use, and at the same time, it is the process of changes that occur in the social and material spheres in connection with this innovation.

Key words: innovation, competitiveness, efficiency, enterprise, employees, national economy, international relations.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar natijasida innovatsion siyosatni qo‘llash orqali, iqtisodiyotni rivojlantirishga qo‘yilmalarning samaraliligi bilan tavsiflanadi, ishlab chiqarishda mavjud bo‘lgan oldingi avlod texnikasi va texnologiyasini ancha samarali, ekologik sof va resurslarni tejashga imkon beruvchi ishlab chiqarish vositalari bilan almashtirishni ifodalaydi. “Innovatsion faoliyat (yangiliklarni joriy etish) ishlab chiqarish yangi texnologiyalari negizida raqobatbardosh mahsulot (tovar) turlarini yaratish jarayoni. Bu jarayon g‘oyaning paydo bo‘lishi, uning maqsadini aniqlash va amalga oshirishdan to ishlab chiqarishni tashkil etish, mahsulot ishlab chiqarish, uni sotish va iqtisodiy samara olishgacha bo‘lgan ishlarni o‘z ichiga oladi” [1].

Insonlar ijtimoiy-iqtisodiy muhitda o‘z o‘rmini egallashi uchun doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, rivojlanishi, bilim saviyasini va malakasini oshirib borishi, innovatsion faollikka intilishi, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishi va boshqalar tomonidan yaratilayotgan yangiliklarni o‘zlashtirib olishi darkor.

Hozirgi zamonda “innovatsiya” tushunchasi biror-bir turdagi faoliyatni tapkibiy jihatdan yangilanishini, tubdan o‘zgartirilishini ifoda etadi.

Mavjud narsaning yangi holatga o‘tishi yoki yangicha sifat kasb etishi bilan bog‘liq jarayon innovatsiya sifatida e‘tirof etiladi. Bu jarayonni ba‘zida yangilikning amaliyotga joriy etilishi deb ham atashadi. Innovatsiyalar dastavval insonlar ongida mavjud reallik bilan uning ideal holati o‘rtasidagi tafovut sifatida shakllanadi. Aksariyat hollarda innovatsion g‘oyalar tez o‘tib borayotgan ehtiyojlar bilan nisbatan sust rivojlanayotgan ishlab chiqarish tizimining potensial imkoniyatlari o‘rtasidagi ichki ziddiyatlarni bartaraf etishga intilish asosida shakllanib boradi.

Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishni tadqiq etishda “innovatsion jarayon”, “innovatsion faoliyat”, “innovatsion soha”, “innovatsion loyiha”, “innovatsion dastur” tushunchalarining mohiyatini asoslash, ularning o‘zaro farqlanishiga aniqlik kiritishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Innovatsiya tushunchasi – keng qamrovli bo‘lib, u ishlab chiqarish jarayoniga mukammal, yangi, ilgari bo‘lmagan texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi.

Innovatsion faoliyat – deganda, iqtisodiy faoliyat sohasidagi jarayonlarni radikal tarzda o‘zgartirishga yordam berishi mumkin bo‘lgan biror-bir yangilikni yaratish tushuniladi.

Innovatsion jarayon – bu innovatsion o‘zgarishlarni tayyorlash va amalga oshiruvchi, yagona bir butunni tashkil qiluvchi o‘zaro bog‘liq pallalardan iborat jarayondir. Innovatsion jarayon innovatsion o‘zgarishlarni tayyorlash va amalga oshirishdan iborat bo‘ladi va yagona bir butunni tashkil qiluvchi o‘zaro bog‘langan unsurlardan tashkil topgan. Bu jarayonni amalga oshirish natijasida innovatsiya paydo bo‘ladi. Innovatsion jarayonni amalga oshirish uchun diffuziya – yangi sharoitlar va qo‘llash joylarda bir marta o‘zlashtirib va foydalanib bo‘lingan innovatsiyalarni vaqtda tarqatish juda katta ahamiyatga ega.

Innovatsion soha – innovatsion mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilarni, o‘z ichiga innovatsiyalarni yaratish va tarqatishni oluvchi faoliyat sohasidir.

Innovatsion loyiha – bu loyiha maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan texnik, tashkiliy, rejangi va hisoblash-moliyaviy hujjatlarning yig‘indisidir.

Innovatsion dastur – bu loyihalarning murakkab kombinatsiyasi bo‘lib, boshqaruv obyekti sifatida alohida loyihadan yoki o‘zaro bir-biri bilan juda zaif bog‘langan, tashkilot yoki uning ijrochilari tomonidan bajariladigan loyihalardan qiluvchi hujjatdir.

Innovatsion boshqarish - mazmuni va sifati bo‘yicha boshqaruvning ma‘lum darajasini hamda boshqaruv faoliyatining o‘ziga xos tavsifini bildiradi. Ya‘ni, ma‘lum bir joyda yangi tavsifga ega bo‘lgan bilimlar, texnologiyalar, usullar va vositalar, yondashuvlar an‘anaviy deb hisoblangan boshqaruv usullari va vositalari, tamoyillari, ichki xususiyatlari va xususiyatlari, mezonlari, shartlari yoki muhitiga kiradi”. Shuni ta‘kidlash kerakki, innovatsion menejment har doim ham an‘anaviy menejmentni inkor etmaydi yoki butunlay almashtirmaydi.

Innovatsiyani boshqarish esa korxona faoliyati jarayonlarining barcha tomonlarini yangilashni ifodalaydi. U nafaqat texnik yoki texnologik ishlanmalarni, balki korxonaning barcha faoliyati tomonlarini yaxshi tomonga o‘zgarishlarini, shu bilan birgalikda yangi bilimlarni boshqarish jarayonini o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, innovatsiyani boshqarishni yuzaga kelishida yangi bilimlarni vujudga keltirishni boshqarish muhim turtki bo‘lgan. Dastlab ilmiy soha tashqi ta‘sirilar ostida rivojlangan bo‘lib ishlab chiqarishning talabiga va insonlarning hayot faoliyatiga javob bergan. Ilmiy bilimlar stixiyali holda vujudga kelgan, boshqarilmagan, vaqt o‘tishi bilan uning samarasi pasaygan. Ilmiy sohaning sifatli rivojlanish bosqichi davri XX asrning yarmida “Fan-fan haqida” degan vaqtdan boshlanadi. Menejerlar tadqiqot ishlarining to‘la huquqga ega bo‘lgan ishtirokchilariga aylandilar, fan qisman iste‘molchilarga yuz o‘girdi. Fan tadqiqot jarayonlarining vujudga kelishining mantiqiy davomi sifatida amal qila boshlaydi.

Hozirgi davr fan sohasini keskin ravishda iste‘molchiga yuz o‘girishini talab etadi. Yangi bilimlarni vujudga keltirishni boshqarishni amalga oshirishda iste‘molchilar monitoringini o‘tkazish talab etadi.

Ikkinchidan, yangi iqtisodiy bilimlarni yaratuvchilar salohiyatini boshqarish XXI asr to‘plagan ulkan bilimlar hajmi bilan tavsiflanadi. Xattoki, tor mavzularda katta miqdorda, har xil darajada va har hil ko‘rinishda qarorlar qabul qilinadi, va tatbiq qilinadi, ko‘plab usullar amal qiladi. Katta

miqdorda axbortlar oqimi aylanadi. Alohida mutaxassis, hattoki tor doirada mavjud bo‘lgan axbortlarni qamrab ololmaydi, insoniyat esa katta tezlikda axbortlarni to‘plashni davom ettiradi. Bundan tashqari ko‘pgina amaliy qarorlar, bilimlar va boshqa sohadagi tajribalarni qo‘llash natijasida samara olinadi.

Bugungi kunda yangi bilimlarni kam xarajatlar bilan izlash va katta ehtimollik bilan maqsadga yetishishning maxsus metodologiyalarini vujudga keltirishning zarurligini anglab yetish qiyin emas. Yangi bilimlarni yaratuvchi ijodiy salohiyatni boshqarishga bo‘lgan talab oshib bormoqda.

Uchinchidan, yangiliklarni o‘zlashtirishni boshqarish, texnikada, iqtisodiyotda va umuman barcha faoliyatlar sohasida topilgan yangiliklarni amaliyotga joriy etish kerak. Yangilikni joriy etish doimo bizning mamlakatimizda dolzarb va o‘tkir muammo bo‘lgan. Bunday muammo ijobiy natijaga ega bo‘lishning mavhumligi, ya’ni namoyon etish bilan bog‘liq. Demak, yangilikni tatbiq etishni boshqarishni rivojlantirish uchun muntazam va keng ko‘lamda ish yuritish zarur.

To‘rtinchidan, yangiliklarni kiritishni ijtimoiy va psixologik tomonlarini boshqarish yangiliklarni kiritishni tezlashtirish va uning ko‘lamini kengaytirish eski va yangilari o‘rtasida kuchli ziddiyatni keltirib chiqaradi. “Eskisini yangisi bilan almashtirishning” psixologik tomoni ba’zida kuchli va hal etib bo‘lmaydigan muammoga aylanadi, chunki har qanday yangilikga o‘z o‘rnini bo‘shatish davridagi keskin burilish holati deb tushinish kerak. Shu kungacha rivojlanishni oldindan ko‘ra bilish metodologiyasining yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli inqrozlarning davridagina yangilikni kiritish zarurligiga e’tibor berilgan. Hozirda ilg‘or kompaniyalar inqrozlarni oldini olish strategiyasidan foydalanadilar.

Innovatsiya xo‘jalik faoliyati xarakteri va boshqarish shakllari har xil bo‘lgan: fan, ishlab chiqarish, investitsiya, mahsulotlarni sotish kabi tarmoqlarni bog‘laydi. Innovatsiyani boshqarish uslubi va usullarini takomillashtirish, bozordagi holatga tez holda moslashish, korxonada jihozlarni qo‘llashni yangi yo‘nalishlarini rivojlantirish, boshqarish uchun kerakli bo‘lgan yangiliklarni kiritish, bozorning xususiyatiga mos keladigan zamonaviy menejmentning barcha elementlarini takomillashtirish bilan innovatorlar barcha zahira turlaridan innovatsiya faoliyatida muvaffaqiyatli foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.


Innovatsiyani joriy etish doimo bozor talabiga bog‘liq. Uzoq va qisqa muddatli dasturlarni balansli holda bo‘lishini ta’minlash uchun, ya’ni bozorda maqsadga muvofiq bo‘lgan o‘z usulini aniqlash, innovatsiya salohiyatidan olinadigan samarani oshirish uchun, innovatsiya menejeri yangi tovarlarni, xizmat ko‘rsatishni qancha miqdorda ishlab chiqish, modernizatsiyani amalga oshirish uchun qanday mahsulotlar kerakligini aniqlab beradi.

Hozirgi kunda korxonalarda innovatsiya dasturining ustuvor yo‘nalishlariga mahsulotlarning yangilarini ishlab chiqarishga joriy etish, bozorning yangi segmentlarini o‘zlashtirish, korxona rentabelligini oshirish, mavjud bo‘lgan moddiy va ilmiy resurslardan optimal foydalanish va boshqalar kiradi.

Aytish mumkinki, ishlab chiqarish jarayonida ilmiy - texnikaviy ishlanmalarni qo‘llanilishi natijasida ular ilmiy-texnikaviy innovatsiya mahsulotlariga aylanadi. Yangiliklarni ishlab chiqish va tadbiq etilishi, jarayonlarni murakkablashishi, yangi texnologiyalarni paydo bo‘lishi xodimdan tegishli malaka va alohidagi kasbiy bilimlar va ko‘nikmalarni talab qiladi. Innovatsion tuzilmalarda xodim ma’lumotining umumiy darajasini ancha oshishi sodir bo‘ladi. Xodimlarning shakllanayotgan turi o‘ziga ma’suliyatni olish va qarorlar qabul qilishga qodir xodimlarni talab qiladi. Vakolatlarni boshqaga topshirish va uning bilan bog‘liq tashkilot iyerarxiyasi yuqori darajalarining vakolatlarini qisqarishi xodimlarning tashabbusi, shaxsiy erkinligi va omilkorligini o‘sishi bilan yaqindan bog‘liq.

Respublikamiz sanoatining yetakchi tarmoqlaridan bo‘lgan to‘qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirish o‘ziga xos bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Eng avvalo, mazkur tarmoq aholining keng halq iste’moli tovarlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishini, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentining kengligini, hamda tarmoq mahsulotlarining mehnat sarfini ko‘p talab qilishini, mahsulot tannarxida xom ashyo sarfi ulushi yuqori ekanligini e’tiborga olishimiz zarur.



1.2-rasm. To‘qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirish xususiyatlari

Innovatsion faoliyatni boshqarish – korxona faoliyati jarayonlarining barcha tomonlarini yangilashni ifodalaydi. U nafaqat texnik yoki texnologik ishlanmalarni, balki korxonaning barcha faoliyati tomonlarini yaxshi tomonga o‘zgarishlarini, shu bilan birgalikda yangi bilimlarni boshqarish jarayonini o‘z ichiga oladi.

Innovatsiya faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'z navbatida yana 2ta guruhga ajratishimiz mumkin:

1. Innovatsiya faoliyatiga to'siqlik qiladigan omillar.
2. Innovatsiya faoliyatiga yordam qiladigan omillar.

Iqtisodiy, texnologik omillardan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun mablag'larning yetishmasligi; moddiy texnika bazasining kuchsizligi va eskirgan texnologiya; zahira quvvatlarining yo'qligi; amaldagi ishlab chiqarish qiziqishlarining ustunligi innovatsiya faoliyatiga to'siqlik qiladigan omillar hisoblansa, xo'jalik va ilmiy texnik infratuzulmalar uchun zarur bo'lgan moliyaviy, moddiy-texnik vositalar, progressiv texnologiyalar zaxirasining mavjudligi, innovatsiya faoliyati uchun moddiy rag'batlantirish innovatsiya faoliyatiga yordam qiladigan omillardir.

Innovatsiya faoliyatini rag'batlantiradigan Qonunchilik tadbirlari (ayniqsa imtiyozlar) davlat tomonidan innovatsiyani qo'llab quvvatlash innovatsiya faoliyatiga yordam qiladigan omillar hisoblanadi.

Tashkiliy, boshqaruv omillaridan hisoblanadigan tashkiliy tizimlar, ortiqcha markazlashtirish, boshqarishlarning avtoritar uslubi, axborotlarning vertikal oqimlari ustunligi, idoraviy ajrab qolishlik, tarmoqlararo va idoralararo o'zaro hamkorlikning qiyinligi; rejalashtirishdagi qattiqlik; vujudga kelgan bozorga qisqa muddatda mo'ljal olish, innovatsiya jarayonlari ishtirokchilarining qiziqishlarida kelishishdagi qiyinchilik innovatsiya faoliyatiga to'siqlik qiladigan omillar hisoblansa, tashkiliy tizimning uddaburonligi, boshqarishning demokratik stili, axborotlar vertikal oqimlarining ustunligi, o'z-o'zini rejalashtirish, korrektirovkalarga yo'l qo'yishi, desentralizatsiya, avtonomiya, maqsadli muammoli guruhlarining shakllanishi innovatsiya faoliyatiga yordam qiladigan omillardir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ijtimoiy –psixologik va madaniy omillardan statusning o'zgarishi, yangi ishni qidirish zaruriyati, yangi xulq-atvor stereotiplarining buzilishi, vujudga kelgan an'analarning buzilishiga olib kelish mumkin bo'lgan o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatish; noaniqlikdan havfsirash; muvaffaqiyatsizlik uchun jazolanishdan havfsirash, tashqaridan keladigan har qanday yangilikka qarshilik ko'rsatish innovatsiya faoliyatiga to'siqlik qiladigan omillar bo'lsa, ma'naviy rag'batlantirish, jamoat tomonidan tan olinish; o'zini realizatsiya qilish imkoniyati bilan

ta'minlanish; jamoadagi ijobiy ruxiy muhit innovatsiya faoliyatiga yordam qiladigan omillar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF–60- son Farmoni.
2. Turdiyeva M. Osobennosti i prioritetniye napravleniya razvitiya innovatsionnix protsessov v Respublike Uzbekistan. Byulleten nauki i praktiki / Bulletin of Science and Practice <https://www.bulletennauki.com> T. 7. №12. 2022, 221-229c.
3. Muqaddas Turdiyeva. Korxona xodimlarining innovatsion faoliyatini motivatsiyalash orqali raqobatbardoshlikni ta'minlash omillari. Iqtisodiyot: Tahlillar va prognozlar. № 4 (16) Oktabr-Dekabr, 2022 yil 101-105 b.
4. Sayfutdinov M.A. Tikuvchilik korxonalari marketing strategiyasini ishlab chiqish: Iqtisod fanlari nomzodi... dis. TDIU. –T.: 2004. -170 b.
5. Xasanova G.D. "Sanoat korxonalari innovatsiya faoliyati samaradorligini oshirish". Iqtisod fanlari nomzodi... dis. TDIU. –T.: 2006. -141 b.
6. Gaipnazarova Z.T. Innovatsion investitsiyalashtirish samaradorligini oshirishning nazariy asoslari. Iqtisod fanlari nomzodi... dis. Toshkent Davlat texnika universiteti. –T.: 2012. -141 b.

UDK: 338.465

OLIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUVINI XALQARO STANDARTLARGA INTEGRATSIYALASH IMKONIYATLARI TAHLILI

АНАЛИЗ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ИНТЕГРАЦИИ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШИМИ УЧЕБНЫМИ ЗАВЕДЕНИЯМИ В СООТВЕТСТВИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ.

ANALYSIS OF THE POSSIBILITIES OF INTEGRATING THE MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS.

Odinayeva Nigina Furqatovna Buxoro davlat universiteti
Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, i.f.f.d(PhD)

Annotatsiya

Maqolada Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqaruvini xalqaro standartlarga integratsiyalash imkoniyatlari tahlil qilinib, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishning xalqaro integratsiyalash jarayonlari aniqlangan. Jumladan, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'lim muassasalari, oliy ta'lim boshqaruv, xalqaro standartlar, oliy ta'lim boshqaruvni integratsiyalash.

В статье анализируются возможности интеграции управления деятельностью высших учебных заведений в соответствии с международными стандартами, а также определены процессы международной интеграции управления высшими учебными заведениями. В частности, разработаны научные предложения и практические рекомендации по совершенствованию управления деятельностью высших учебных заведений.

Ключевые слова: образование, высшее образование, высшие учебные заведения, управление высшим образованием, международные стандарты, интеграция управления высшим образованием.